

## **2014-2024-YILLARDA QASHQADARYO VILOYAT OTMLARIDA TALABA VA O'QITUVCHILAR DINAMIKASI: YUTUQLAR VA SIFAT TAHILLARI**

---

*Safarov Shoxrux Sattor o'g'li*

*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

[akademikmarketing1234@gmail.com](mailto:akademikmarketing1234@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekiston, ayniqsa Qashqadaryo viloyatidagi oliy ta'lif tizimidagi islohotlari statistic ma'lumotlar orqali yoritadi. Zamonaviy ehtiyojlarga mos malakali mutaxassislar tayyorlash va ta'lif sifatini xalqaro darajada rivojlantirish asosiy maqsad sifatida ko'rildi. Maqolada ta'lifning sifatiy jihatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarning ilmiy-salohiyat darajasini oshirish va individual yondashuvni ta'minlash uchun strategik chora-tadbirlarni ko'rish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lif muassasalari, talabalar soni, professor-o'qituvchilar, ilmiy darajali kadrlar, ta'lif sifati, kadrlar salohiyati.

**Annotation:** This article covers reforms in the higher education system of Uzbekistan, especially in the Kashkadarya region, through statistical data. The training of qualified specialists in accordance with modern needs and the development of the quality of education at the international level are seen as the main goals. The article emphasizes the need to take strategic measures to improve the qualitative aspect of Education, increase the level of scientific potential of professors and teachers, and ensure an individual approach

**Keywords:** Higher education institutions, number of students, professors, scientific degree staff, quality of education, personnel potential

**Аннотация:** В данной статье освещаются реформы системы высшего образования в Узбекистане, особенно в Кашкадарьянской области. Подготовка квалифицированных специалистов, соответствующих современным потребностям, и развитие качества образования на международном уровне рассматриваются как основная цель. В статье подчеркивается необходимость принятия стратегических мер для улучшения качества образования, повышения уровня научного потенциала преподавателей и обеспечения индивидуального подхода.

**Ключевые слова:** Высшие учебные заведения, количество студентов, преподавателей, научных кадров, качество образования, кадровый потенциал.

Mamlakatimizda oliy ta'lif tizimini butunlay yangilash, kadrlar tayyorlash jarayonini zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda qayta shakllantirish, raqobatbardosh

va yuqori malakali mutaxassislar yetishtirish hamda sohani xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish maqsadida innovatsion faoliyatni boshqarishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev<sup>1</sup> uchinchi renessans haqida so'z yuritar ekanlar – yangi uchinchi renessansning tayanch ustunlari albatta malakali kadrlar va ularni tayyorlab beradigan oliy toifali professor-o'qituvchilar hamda ular faoliyat yuritayotgan OTMlar biz qurmoqchi bo'lgan yangi jamiyatning poydevori ekanligini ta'kidlaydilar.

Oliy ta'lif sohasidagi islohotlar mamlakatimizning barcha viloyat-tumanlarida xususan, vohamizda ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilyapti. Mazkur jadvalda so'ngi 10 yillikda Qashqadaryo viloyatida talabalar qamrovi, OTMlar soni va ulardagi ta'lif sifati o'rganilib chiqilgan.

Quyida berilgan jadvaldan shuni yaqqol ko'rishimiz mumkinki **talabalar soni** yildan-yilga barqaror o'sib bordi. Agar 2014 yilda oliy ta'lif muassasalarida 11,8 ming talabalar tahsil olgan bo'lsa, 2020 yilda bu ko'rsatkich 22,4 mingga, 2022 yilda 44,2 mingga, 2023 va 2024 yillarda esa 57,4 ming nafarga etdi. Talabalar sonining besh barobarga yaqin o'sishi aholining oliy ma'lumotga bo'lgan talabining ortib borishi va ta'lif muassasalari imkoniyatlarining kengayishini aks ettiradi.

**2014-2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lif muassasalari faoliyati va ulardagi ta'lif jarayonida muhim o'zgarishlari**

Ko'rsatkichlar	O'chov birligi	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
<u>Oliy o'g'uv yurtlari</u>	<u>birlik</u>	<u>3</u>	<u>3</u>	<u>3</u>	<u>3</u>	<u>3</u>	<u>3</u>	<u>6</u>	<u>6</u>	<u>6</u>	<u>9</u>	<u>9</u>
<u>Ulardagi talabalar soni</u>	<u>ming kishi</u>	<u>11,8</u>	<u>12,6</u>	<u>13,3</u>	<u>14,1</u>	<u>15,9</u>	<u>18,1</u>	<u>22,4</u>	<u>27,8</u>	<u>44,2</u>	<u>57,4</u>	<u>57,4</u>
<u>Jami o'qituvchilar soni</u>	<u>kishi</u>	<u>858</u>	<u>984</u>	<u>1044</u>	<u>1086</u>	<u>1154</u>	<u>1196</u>	<u>1404</u>	<u>1455</u>	<u>1797</u>	<u>2031</u>	<u>2031</u>
<u>Har 5 nafar talabaga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni</u>	<u>nabob</u>	<u>0,36</u>	<u>0,39</u>	<u>0,39</u>	<u>0,39</u>	<u>0,36</u>	<u>0,33</u>	<u>0,31</u>	<u>0,26</u>	<u>0,20</u>	<u>0,18</u>	<u>0,18</u>
<u>Fan doktorlari soni</u>	<u>kishi</u>	<u>25</u>	<u>23</u>	<u>25</u>	<u>28</u>	<u>28</u>	<u>34</u>	<u>87</u>	<u>47</u>	<u>55</u>	<u>70</u>	<u>70</u>
<u>Fan nomzodlari soni</u>	<u>kishi</u>	<u>272</u>	<u>263</u>	<u>259</u>	<u>254</u>	<u>269</u>	<u>288</u>	<u>253</u>	<u>255</u>	<u>256</u>	<u>240</u>	<u>240</u>
<u>har 10 nafar talabaga to'g'ri keladigan ilmiy darsajali professor-o'qituvchilar soni</u>	<u>nafar</u>	<u>0,25</u>	<u>0,23</u>	<u>0,21</u>	<u>0,20</u>	<u>0,19</u>	<u>0,18</u>	<u>0,15</u>	<u>0,11</u>	<u>0,07</u>	<u>0,05</u>	<u>0,05</u>
<u>har 10 ming nafar aholiga to'g'ri keladigan OTM talabalari son</u>	<u>nafar</u>	<u>40,8</u>	<u>42,6</u>	<u>44,0</u>	<u>45,6</u>	<u>50,5</u>	<u>56,3</u>	<u>68,3</u>	<u>83,3</u>	<u>129,7</u>	<u>164,8</u>	<u>161,2</u>
<u>har 10 ming nafar aholiga to'g'ri keladigan OTM bitiruvchilar soni</u>	<u>nafar</u>	<u>8,44</u>	<u>8,59</u>	<u>9,37</u>	<u>9,68</u>	<u>9,88</u>	<u>11,08</u>	<u>11,71</u>	<u>11,72</u>	<u>15,24</u>	<u>16,97</u>	<u>16,56</u>
<u>Oliy ta'lif tashkilotlariga topshirilgan arizalar</u>	<u>dona</u>	<u>27639</u>	<u>32239</u>	<u>40093</u>	<u>44704</u>	<u>49873</u>	<u>62484</u>	<u>62156</u>	<u>83805</u>	<u>100860</u>	<u>63389</u>	<u>90702</u>
<u>Oliy ta'lif tashkilotlariga gabul qilinganlar soni</u>	<u>nafar</u>	<u>2836</u>	<u>2868</u>	<u>3169</u>	<u>3161</u>	<u>3177</u>	<u>4096</u>	<u>5072</u>	<u>5875</u>	<u>7541</u>	<u>10369</u>	<u>14177</u>

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. Manba: <https://old.gov.uz/oz/news/view/28381>

**Professor-o'qituvchilar soni ham muvozanatli tarzda ko'paymoqda.** 2014yilda 858 nafar bo'lgan o'qituvchilar soni 2020 yilda 1404, 2024 yilga kelib esa 2031 nafarga etdi. Shunga qaramasdan, talabalar soni ancha tez sur'atda o'sgani bois, har 5 nafar talabaga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni 2014 yilda 0,36 nafar bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 0,18 nafargacha tushib ketdi. Ya'ni, 2014 yilda 1 o'qituvchiga o'rtacha 14 nafar talabadan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 28 nafarga etdi. Bu holat ta'lim sifatini jiddiy tahdid ostiga qo'yadi, chunki har bir o'qituvchining yuklama hajmi keskin oshadi va bu ta'lim mazmuni hamda individual yondashuv imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, **ilmiy darajali kadrlar tanqisligi** ham ta'lim sifati uchun muhim muammo hisoblanadi. Fan doktorlari soni 2014 yilda 25 nafar bo'lgan bo'lsa, 2020 yilda 87 nafargacha ko'paygan, ammo keyingi yillarda pasayib, 2024 yilda 70 nafarni tashkil etmoqda. Fan nomzodlari sonida esa 2014-2024 yillar davomida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi — 272 nafardan 240 nafarga kamaygan. Ilmiy darajali professor-o'qituvchilarning talabalarga nisbati yildan-yilga kamaymoqda: 2014 yilda har 10 nafar talabaga 0,25 nafar ilmiy darajali o'qituvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 0,05 nafargacha tushib ketdi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari da bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi hamda OTMlarda professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati oshirilishi belgilangan bo'lsa-da, qamrov darajasining oshirilishi ko'rsatkichlariga ilmiy salohiyatning oshirilishi murakkab jarayon bo'lganligi tufayli mazkur ko'rsatkichlarning bir-biriga muvofiq ravishda o'sishi kuzatilmayapti. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonining ilmiyligi va tahliliy asoslanganligi pasayish xavfini keltirib chiqarib, ta'lim sifatining oshirilishiga ham salbiy ta'sir etishi mumkin.

**Har 10000 nafar aholiga nisbatan talaba va bitiruvchilar ulushi** ham ta'lim sifatini baholashda muhim ko'rsatkichdir. Har 10000 nafar aholiga nisbatan talabalar soni 2014 yilda 40,8 nafarga, 2020 yilda 68,3 nafarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 129,7 nafarga, 2024 yilda 161,2 nafargacha o'sgan. Qashqadaryo viloyati OTMlari o'rtasidagi bu ko'rsatkichning so'nggi 10 yilda 400 barobarga o'sganligi viloyatda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkoniyatlarining kengayganligi, oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida ta'lim sifati nisbatan oshirilganligi, bu borada mamlakat miqyosida qo'yilayotgan talablar ijrosi amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, 2020 yildan keyingi yillarda OTMlari o'qishga qabul qilingan talabalar sonida sezilarli o'sish kuzatilgan. Masalan, 2014 yilda 2836 nafar talabalar qabul qilingan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 14177 nafargacha oshgan. Har 10000 nafar aholiga nisbatan bitiruvchilar ulushi tahliliga ko'ra, tadqiqot yillarida, ya'ni 2014 yilda bu ko'rsatkich 8,44 ni, 2020 yilda 11,71 ni, 2024 yilda esa 16,56 ni, ya'ni 2014 yilga nisbatan qariyb 200 barobarga o'sganligini ko'rsatmoqda. Biroq, Qashqadaryo viloyati oliy ta'lim muassasalariga ariza

topshirganlar va qabul qilinganlar o'rtasidagi farq tahlil qilinganda, raqobat darajasi juda yuqori ekanini ko'rish mumkin. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, 2014 yilda viloyat OTMlariga o'qish istagini bildirgan 27639 nafar abiturientdan 2836 nafari (10,3%), 2020 yilda 62156 nafar abiturientdan 5072 nafari (8,2%), 2024 yilda esa 90702 nafardan 14177 nafar (15,6%) Abiturient o'qishga qabul qilingan. 2024 yilda avvalgi yillarga nisbatan raqobat darajasini pasayganligini ko'rsatsa-da, jami talabalarga ta'lif sifatini ta'minlashni boshqarishda kadrlar va moddiy-texnik bazaning etarli bo'lishi masalasi muhimligicha qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida oliy ta'lif tizimi strukturaviy va raqamli jihatdan sezilarli o'sishga erishgan. Biroq ushbu o'sish sifat jihatidan ta'minlanishi uchun — xususan, professor-o'qituvchilar soni, ularning malakasi va ilmiy salohiyati, ta'lif-tarbiya jarayonidagi individual yondashuv hamda ta'lifning mazmuniy boyligi nuqtai-nazaridan jiddiy choralar ko'rish talab etiladi. Agentliklar va muassasalar tomonidan strategiyaviy rejalshtirish asosida kadrlar salohiyatini oshirish va ta'lif sifatini ta'minlash, talabalarning tanqidiy va ilmiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan islohotlar amaldagi o'sish sur'atlarini barqaror va samarali yo'nalishga olib chiqishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy web sayti. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/7403>
3. Ochilov, A. O., & ugli Safarov, S. S. (2023). Prospects For Improving Educational Efficiency In Higher Education Institutions. Miasto Przyszłości, 43, 58-62.
4. Ochilov, A. O., & ugli Safarov, S. S. (2023). Directions For Improving The Quality Of Education In Higher Education Institutions. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(12), 78-82.
5. Ochilov, A. O., & ugli Safarov, S. S. (2021). Management of Competitive Personnel Training in Higher Education System. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(9), 56-60.
6. ugli Safarov, S. S. (2021, September). Principles of Improving the Quality of Higher Education in a Pandemic Period. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 110-112).